

KITOBXONLIK INSON MADANIYATI KÓZGUSIDIR

Bektursinova Gúlxumar

Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika kafedrası óqıtuvchısı.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13283354>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi Ózbekistonda mutolaa madaniyatini oshirish, kitobxonlik madaniyati, ilmiy-falsafiy va aksiolok tahlil masalalari tahlil qilingan.

Kalit sózlar: Renessans, mutolaa, tafakkur, intellekt, qadriyat, strategiya, fond, taraqqiyot, omil, aksiologiya, tahlil.

READING IS A REFLECTION OF HUMAN CULTURE

Abstract. This article analyzes the issues of increasing reading culture, reading culture, scientific-philosophical and axiological analysis in New Uzbekistan.

Key words. Renaissance, reading, thinking, intellect, value, strategy, foundation, development, factor, axiology, analysis

БИБЛИОТЕКА – ЗЕРКАЛО ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы повышения культуры чтения, культуры чтения, научно-философского и аксиологического анализа в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: Ренессанс, чтение, мышление, интеллект, ценность, стратегия, фундамент, развитие, фактор, аксиология, анализ.

Necha ming yillardan beri insonlarga tógri yól kórsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bólishining muhim omili- bu kitobga dóst bólish va óqishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa yoshlarning hayotida kitobning alohida órni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuygularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Donishmandlardan biriga “Inson kitob óqish orqali saodatga erishishi mumkinmi?” deb savol berishganida u: “Kitob óqishning ózi saodatdir” deb javob bergan ekan.

Bugun Vatanimiz jadal rivojlanayotgan, yangi Ózbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan ajdodlarimiz kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bólgan e’tibor davlat siyosati darajasiga kótarildi.

Kitob-inson mánaviyati, dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba hisoblanadi. Kitob óqigan inson mulohazali, bilimli bólib, yuksak tafakkuri bilan boshqalardan ózining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bola yaxshi inson bólib ulgáyadi. Shuning uchun ham oilada, jamiyatda, óquv dargohlarida bolalarning kitobga mehrini, adabiyotga qiziqishini oshirish ota onalarning, ustozlarning vazifasidir.

Qadimda buyuk shoir va yozuvchilarimiz, olimlarimiz kitobga shu qadar mehr qóygan edilarki, hatto tunlari sham yorugida kitob mutolaa qilganlar. Sóz mulkingning sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Kitob beminnat ustoz, bilim va mánaviyat yuksalishiga erishishning eng asosiy manbai”, deb tákidlaydi.[1].

Albatta bunda juda katta máno bor, chunki ózi yetti yoshida Farididdin Attorning “Mantiq-ut tayr” asarini yod olgan. Buyuk muhaddis Imom-al Buxoriy hazratlari esa olti mingdan ziyod

hadisni yod bilgan. Ammo u davrlarda bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning bir qismi ham bólmagan.

Lekin ular óz maqsadlari sari intilib yuksak mánaviyat sohibiga aylanishgan. Bugungi tezkor jarayonda insonlar orasida mehr-oqibat yóqolib, yoshlar internetni kitobdan afzal bilib, kitobga bólgan mehr tobora kamayib boryapdi. Vaholanki Markaziy Osiyo xalqlari kitobning hayot darsligi ekanligi, muqaddasligi haqida son-sanoqsiz naql-rivoyatlar, afsonalar, maqolalar yaratganlar. “Kitobsiz uy-quyoshsiz kun”, “Kitob-inson dósti”, “Oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim-kitobdan”, “Non tóydiradi, kitob kiydiradi”, “Qush don qidiradi, olim kitob”, “Kitob ustingni bezaydi, kitob aqlingni” degan hikmtalarida kitobning qadriga yetish tákidlangan.[2].

Insonga kitobdan kóra yaqin dóst, beminnat ulfat yóq, gámlí zamonda insonga gámxórdir.

Kitob bilan qolgan odam ózini tanho sezmaydi. Kitob nafaqat ziyo maskanlarini yorituvchi nur, balki insonlarni kamolot sari yetaklovchi muhim manaviy xazina hamdir. Kitob insonga ma’naviy ozuqa beribgina qolmay, uning tafakkurini teranlashtirib, sog’lom mulohaza yuritishga o’rgatadi, kelajakka aniq maqsadlar bilan odimlashda mustahkam pillapoya vazifasini bajaradi.

Shu boyisdan u insonning eng yaqin do’sti hisoblanadi. Mutolaaning nozik jihati shundaki, hech bir inson dunyodagi mavjud kitoblarning hammasini o’qib bitirib bo’lmaydi. Buning imkoni yo’q, qolaversa, umr ham yetmaydi. Afsuski, ko’pchilik kitob o’qishni bilmaydi va nimani o’qiyotganini tuzukroq tushinib ham yetmaydi. Bazi birovlar uchun esa o’qish bu-dam olish, shunchaki vaqtni o’tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o’qish bari-bir, zerikarli bo’lmasa bas.

“Gózal kitoblar ajib narsalarni kóruvchi kózgu, ovloqda sirdosh, yolgizlikda dóst, oqizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikirlarni nurlantiruvchi, ótgan zamon ahvolidan sózlovchi, ummatlar voqeotini hikoya qiluvchi, aqlli kimsalarning aqlarini kózlariga kórsatuvchi, oz haqli, kóp foydali narsalardir”.[3].

Bugungi tezkor jarayonda kitobxonlikni zaruratga aylantirish kerakdir. Agar farzandlarimizda kitob óqishga havas bólmasa, uning kitob óqishga bólgan e’tiborini ózgartirish mushkul bólib qoladi.

Ularni óqishga majburlash emas, balki kitob óqishga havas uygotish lozim. Bu borada ota-ona, ustozu murabbiylar va kutubxonalar xodimlari bevosita yordam berishlari lozim. Bunda bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari hisobga olinishi kerak.

Italiya yozuvchisi Seneka: “Kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi”, -deb aytgan edi.[4].

Bugungi yoshlarimiz milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanmoqda. Ammo gárbona madaniyatning “yuvuqsiz” kórinishlari bázi yoshlarimizni yóldan urmoqda. Dunyo taraqqiyotidan uzilmagan holda xalqning milliy qiyofasini saqlab qolish va buyuk ajdodlarimizga munosib bólish uchun ham yoshlarni madaniyatga oshno qilib kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdan charchamaslik kerak. Chunki bizda boy milliy qadriyatlar mavjud, kuchli tarbiya bor, zamonlar shiddatiga dosh bera olgan axloqiy tamoyillarni óz ichiga olgan qomusiy kitoblarimiz bor. Bunday axloqiy-falsafiy kitoblar donishmandlikni yoyish quroli bólib, bu haqda Sohibqiron Amir Temurning shunday hikmati bor: “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik, aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni órgatuvchi muallimdir”[5].

Masalaning yana bir tomoni kitob o'qishning foydasi haqida ham aniq fikrlar aytish mumkin.

Bugun psixolog olimlarimiz kitob o'qishning foydasi haqida gapirib, bir qancha sabablarni ko'rsatmoqdalar.

Birinchidan, kitob o'qiydigan odamning so'z boyligi katta bo'lib, kitob o'qilganda kishi oddiy kundalik hayotda ishlatilmaydigan so'zlarni ham uchratadi.

Ikkinchidan, kitob o'qish boshqa odamlar bilan muloqot qilishda yordam beradi, ya'ni kitob o'qigan odam o'z fikrlarini chiroyli, aniq, yorqin ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Bir necha mumtoz adabiyotni o'qishning o'zida ham kishida notiqlik san'ati bir qadar rivojlangani seziladi. Shu tariqa kishi yaxshi suhbatdosh bo'la oladi, odamlarda o'zi haqida yaxshi taassurot qoldiradi.

Uchinchidan, kitob o'qish kishini dadillashtiradi, kitob o'qish insonning o'ziga ishonchi ortadi, chunki kitobdan olgan ilmi yosh avlodni manaviy, intellektual salohiyati, ongu tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bolalar o'rtasida turli tadbirlar, kitobxonlik kechalarida bellashuvlar o'tkazilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ko'p kitob o'qigan kitobxon turli yo'nalishlarda moddiy va manaviy rag'batlantirilmoqda. Ammo, hozirgi kunda rang-barang voqea, hodisalarga boy filmlar, sarguzashtlar haqida hikoya qiluvchi boshqa vositalar (televizor, kompyuter, internet) tasiri kuchayib bormoqda.

Bular o'quvchi yoshlarimizga qo'shimcha axborot berish bilan birga farzandlarimizning ko'p vaqtlari televizor ekrani va kompyuter yonida o'tishi tufayli bolalarimizning salomatligiga tasir etishi bilan birga ularning kitob o'qishiga ham salbiy tasir o'tkazmoqda. Bilamizki, televizor hech qachon kitob o'rnini bosa olmaydi. Chunki, kitobdek do'st ichida barcha ilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi, unga madad beradi.

Atrofingizdagi odamlarda esa siz haqingizda yaxshi tasavvur uygonadi.

Shu boisdan ham ulug'larimiz kitobni mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza ekanligini ko'p bor takidlaganlar. Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo'jizaga chiroyli tarif berib: "Yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq shunday bo'lsa-da olamda yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligini yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo'jiza-kitobdir".[5].

G'arb olimlaridan biri Labule "Taraqqiyotning umumiy kalamida har bir xalqning o'zni o'sha xalq o'qiyotgan kitoblarning soni bilan belgilanadi",- deb takidlagan edi. Qadriyatlarimizdan saboq chiqarmo'g'imiz lozim. Masalan, xonliklar davrida madrasalarda tahsil olayotgan toliblar o'zlashtirishiga qarab uch guruhga bo'lingan: birinchi bosqich "Avvali ilm"dan boshlab, "Aqvid" bilan tamomlagan. Zehni o'tkir talabalar madrasani 6-7 yilda tugatganlar.

Talim muassasalarida kitob mutolaasi targ'iboti millatning tili, tarixi, dini, mustaqilligi, erkinligi, manfaati nuqtai nazaridan amalga oshirilsagina maqsadga erishish mumkin.

Shu nuqtai nazardan jamiyat va shaxsning tafakkuriga, ahloqiga ijobiy tasir o'tkazadigan kitoblar bilan mazmuni sayoz, axloqiy, estetik, manaviy qimmatini past bo'lgan kitoblarni ajrata bilish konikmasini shakllantirish asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Tálim muassasalarida shakllantirilgan mutolaa muhiti induvidual tásir kórsatibgina qolmay, ommaviy va guruhli tásir kuchidan órinli foydalanilgan holda ommaviy kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga imkon beradi.

Ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa televideniada kitob mutolaasi targ'ibotini ózlari kóp óqigan, tahlil eta bilish qobiliyatiga ega bólgan, tavsiya etilayotgan har bir asar haqida aniq, asosli fikr ayta oladigan kishilar olib borishlari ijobiy samara bera oladi.

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar órtasida kitob óqishni targ'ib qilish, ularning faol kitobxon bólishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yónalishda dasturiy loyihani faoliyatini rivojlantirish, internet texnologiyalardan faol foydalanish hamda kitobxonlik faoliyatini oshirishga yónaltilgan ijtimoiy psixologik mexanizmlarni izlab topish zamonaviy an'ana tusini olmoqda.[4]

Xulosa qilib aytganda, kitob bizning hozirgi hayotimizdir. Chunki yosh avlodning har tomonlama shakllanishida kitob mutolaasining órni beqiyosligini, kitobxonlik madaniyatini oshirish dolzarb ekanligini inobatga olib, Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bóyicha komissiya tuzish tógrisida"gi Farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur hujjatda aholining keng qatlamini kitob óqishga jalb etish, kitob óqish va kitobxonlikni targ'ib etish, voyaga yetgan farzandlarimizni bog'cha yoshidan boshlab kitobga mehrli qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e'tibor berish, ularni chop etish sifatini yaxshilash, turli mazmundagi kitoblar bilan kitob dókonlarini tóldirish, kitoblar fondini yanada boyitish kózda tutilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib davlatimiz rahbari yurtimizda 2017-2021 yillarda Ózbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yónalishi bóyicha harakatlar strategiyasi asosida jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'alarini chuqur qaror toptirishga, xalqimiz ayniqsa unga madad beradi.

REFERENCES

1. Мокина М. Чтение – основа грамотности. Ж.Этносфера. – М.2008. стр.21-22
2. Malika Murodov. Ózbek qadriyatlari. T. "Chólpon". 1995. 132b.
3. Rizouddin ibn Faxriddin. Nasihat. T. "Chólpon". 1993. 12b.
4. Malik Murodov. Ózbek qadriyatlari. T. "Chólpon" 1995. 132b.
5. Kitob uz. sayti.